

ETNOMADANIYATDAGI ZAMONAVIY JARAYONLAR TAHLILI

Atamuratova Feruza Sadullaevna

*Falsafa fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi
dotsenti*

Elektron pochta: fatamur@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek etnomadagiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bag'ishlangan bo'lib, unda o'zbek urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarida kechayotgan "zamonaviylik"ka xos bo'lgan jarayonlar sotsiologik so'rov natijalari asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: etnomadaniyat, millat, o'zbek, urf-odat, an'ana, qadriyat, zamonaviylashuv, mentalitet.

KIRISH

O'zbeklar o'zining etnomadaniy imkoniyatlari jihatdan o'ta boy millat hisoblanadi. Shuning uchun ham sobiq sho'rolar zo'rovonligi sharoitida ham ularni yo'q qilishga qaratilib amalga oshirilgan ayrim tadbirlarga qaramasdan millatimizning o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim va udumlarni ommaviyligini kamaytirgan bo'lsa ham ularni batamom yo'q qila olmadi. Ularning ayrimlari garchand shaharlarda to'la amal qilmagan bo'lsa-da, millatimizning asosiy aholisini tashkil qilgan qishloqlarda yashirin holatda bo'lsa ham saqlanib qoldi va xalqimiz ularga amal qilib keldi. Bunda, xalqimizning aksariyat ko'pchilik qismining qishloq joylarida yashaganligi ham katta rol o'ynadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugun bu jarayon ko'pgina umumiy holatda milliy ma'naviyatlarning "Zamonaviylashuvi" sifatida qaralmoqda. Aslida etnomadaniy hayotning "Zamonalashuvi" tushunchasi ijtimoiy falsafiy jihatdan yetarli darajada tahlil qilinmagan. Bu tushuncha ayrim san'atshunoslarning ilmiy maqolalarda uchraydi. Jumladan, Ozoda Nishonova unga shunday fikr bildirgan: "Zamonaviylik, tarixiy an'analarga tayanib, ular bilan uyg'unlashib, estetik qadriyatlar, boyliklar yaratilganida xalq hayotidan muhim o'rin oladi" [1]. Bundan tashqari, u "O'zbek ayollari etnomadaniyatidagi zamonaviylik::

- tarixiy-madaniy, an'analarga, milliy maktablar;
- xalq ijodiy va san'atini ommalashtirish;

- mohiyatdan milliy, shaklan umuminsoniy qadriyatlar, belgilar, timsollar yaratish;
- xalqaro ijtimoiy-madaniy aloqalarni, tajriba va informatsiyalar almashishni qo'llab quvvatlash;
- har bir kishini etnomadaniy boyliklar yaratish subektiga aylantirish kabi vazifalarni bajaradi" [1], - deb yozadi.

Fikrimizcha, "Zamonaviylik" - deganda vaqt nuqtai nazardan qaraganda, kecha va ertangi kun o'rtasidagi "bugun" tushuniladi. Shu ma'noda yuqorida muallif tomonidan "Zamonaviylik"ni tarixiy an'analar bilan uyg'un holatda qaraganligiga qo'shilish mumkin. Ammo, bu fikr uning faqat bir tomonini o'zida aks etirgan. Jumladan, "Zamonaviylik" o'zgarmas tushuncha emas, balki, u vaqt ehtiyoj va taraqqiyot nuqtai nazardan qaraganda o'zgarib takomillashib boradi va ular zamirida yangi "Zamonaviylik"ni yuzaga keltirishga manba bo'lib boraveradi. Shu ma'noda ham "kechagi" va "bugungi" "zamonaviylik" ertangisi uchun manba bo'lishi mumkin. Ammo, uning muhim sharti borki, u ham bo'lsa, "kechagisi" va "bugungisi" milliy zaminlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan, undan bahra olgan va unga tayangan bo'lsa, "Zamonaviylik" millat kamolatiga xizmat qiladi va etnomadaniyatning mukammallashib, boyib borishiga xizmat qiladi.

Bunday zamonalashuvning muhim tomoni shundaki, ayrim holatlarda uni «tashqaridan» kirib keladigan «yangilari» deb qaraydiganlar ham uchraydi. Bunday qarashlar oqibatida milliy o'ziga xoslik ana shu kirib keladigan «yangilari» ta'sirida yemirilib boradi. "Zamonaviylik" milliylikning zamon taraqqiyoti darajasida namoyon bo'lishi, uni zamon talablariga mos rivojlantirilishi va millat ongi, qalbi, ruhiyati va ma'naviyatida mustahkam o'rin olishida o'z ifodasini topadi.

Yana bir muhim masala, u ham bo'lsa «zamonaviylik» va «zamonaviylashuv» tushunchalarining o'zaro munosabatlaridir. Agar «zamonaviylik» zamon va makonda vujudga kelib, uning ehtiyojlariga javob bera oladigan moddiy va ma'naviy boyliklarni o'z ichiga olsa "zamonalashuv" milliy urfodat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarning asrlar davomida shakllanib, bugunning talablariga mos rivojlantirilgan va takomillashtirilgan qismini o'z ichiga oladi. Bu "kechagi"dan nimani olish va uni bugun uchun "moslashtirish" jarayonini o'ziga qamrab oladi. Shuning uchun ham "zamonaviylashuv" juda murakkab, qarama-qarshiliklar asosida kechadigan jarayondir. "Zamonaviylik" ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichida yuzaga kelib, uning ehtiyojlariga javob bera oladigan milliy-ma'naviy boyliklar bilan chatishib ketadi.

Demak, "Zamonaviylik"ka vaqt, ehtiyoj va taraqqiyot kabi mezonlar asosida, unga jarayon sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Har bir "Zamonaviylik" ma'lum

tarixiy davrdan keyin o'zining "zamonaviylik" qiymatini yo'qotadi va u inson, millat va jamiyat taraqqiyotining keyingi "zamonaviyligi" ehtiyojlariga javob bermaydi. Shuning uchun «zamonaviylik» deganda nafaqat tarixiylik bilan bog'liq, shuningdek, o'zgaruvchan ehtiyoj va taraqqiyot darajalari bilan

hamohang bo'lgan tarixiy-ijtimoiy jarayonni tushunish mumkin.

Fikrimizcha, etnomadaniy salohiyatda "zamonaviylik" quyidagilarni o'zida aks ettirishi lozim bo'ladi:

- Milliy ma'naviy meros, tarixiy ong va ajdodlarning milliy ma'naviyatni shakllantirishdagi tajribalarini o'zlashtirish va uning ommaviylashuvida;

- Milliy ong, milliy o'zlikni va manfaatlarini anglashdagi o'ziga xos xususiyatlarini rivojlanishida;

- Milliy mentalitetning o'ziga xosligini aks etiruvchi ma'naviy qiyofasining takomillashuvi;

- Milliy qadriyatlarning milliy taraqqiyoti ehtiyojlariga mos bo'lgan jihatlarning ommaviylashuvida;

- Millatni taraqqiy qilgan millatlar darajasiga ko'tarishga xizmat qiladigan, u shu maqsad va muddaolariga yetaklovchi milliy g'oyada;

- Jahon halqlari tomonidan yaratilgan insoniyatning umummulkiga aylangan eng ilg'or moddiy va ma'naviy boyliklarni izchillik bilan o'zlashtirishda;

- Millat etnomadaniy salohiyatini turli zararli, mazmunan qashshoq "ommaviy ma'naviyat" ta'sirlaridan himoya qilishadigan millat ma'naviy immunitetning paydo bo'lishi va uning mustahkamligida;

- Zamon va makonda sodir bo'layotgan turli ma'naviy qashshoqlashuv jarayonlaridan ustun tura oladigan, o'zining mazmuni va milliy "qiyofasi" bilan umuminsoniyatga xizmat qiluvchi tamaddunlar, qadriyatlari tizimidan munosib o'rin egallay biladigan milliy salohiyatda kabilarda o'z ifodasini topadi.

Etnomadaniyatdagi "zamonaviylik"ning qudrati shundaki, u o'z mohiyati, mazmuni va "qiyofasi" bilan millat vakillarida har qanday o'zga millat etnomadaniy salohiyatlariga ehtiyoj qoldirmaydi. U zamon ruhiyati, taraqqiyot darajalari va ehtiyojlariga hamohanglikda namoyon bo'ladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, kundalik hayotda urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarning millatga xos xususiyatlari haqida gap ketganda unisi yoki bunisi millatning mentaliteti bilan bog'liq – degan fikr bildiriladi. Shuni hisobga olib eng avvalo, millatdoshlarimiz "mentalitet" tushunchasini qaysi darajada bilishini aniqlash maqsadida "Mentalitet" so'zining ma'nosini qanday tushunasiz?", – degan

savol berildi. So'rovda qatnashganlar respondentlar javoblarini umuman olganda uchta yo'nalishga taqsimlash mumkin. Jumladan, respondentlarning "mentalitet"ni madaniyat, deb tushunadiganlar (18%); ruhiyat (26%); urf-odat, an'ana, qadriyat, udum, marosimlar majmuasi (30%)ni tashkil qildi. 25% respondentlar bu tushunchani eshitmaganligini, qolgan 3% esa javob qaytarmaganlar. Bundan, ko'rinib turibdiki, hali millatdoshlarimiz o'rtasida ilmiy tushunchalarni tashviqot qilish bugungi ilmiy taraqqiyotning darajalaridan orqada qolmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida bu ko'rsatkich yuqori ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, viloyatlardan qatnashgan respondentlarning 68% shahardan ishtirok qilganlarning 30% bu tushuncha haqida to'la ma'lumotga ega emasligini bildirdilar. Endi bu tushunchani millat bilan bog'lab, "Milliy mentalitet" deganda nimani tushunasiz?" - degan savol berildi. Bu savolga respondentlar tomonidan berilgan javobni ham shartli ravishda uch guruhga ajratganimizda quyidagi ko'rsatgichni tashkil qildi: "Milliy mentalitet" – bu millat madaniyati va ma'naviyati (26%); bu ruhiyat va turmushning millatga xos xususiyatlar majmuasi (18%), bu millat turmushiga kirib ketgan faoliyat shakllari, undagi o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyatlar, udum, marosimlar majmuasi deb tushunganlar (29%) foizni tashkil qildi. Shuning bilan bir qatorda 16% respondent bu tushunchani bilmasligini aytgan. Keltirilgan ma'lumotardan kelib chiqadigan xulosa:

Birinchidan, millatdoshlarimizda millatni tashkil qiladigan, uning birligi mustaqil omilligini va o'ziga xosligini ta'minlaydigan, o'zligini anglatishda asosiy manba bo'ladigan milliy-ma'naviy omillar haqida yetarli darajada tushunchalar yo'q;

Ikkinchidan, milliy-ma'naviy taraqqiyot darajalari ham jamiyat taraqqiyoti darajalaridan bir qadar orqada qolmoqda. Yana ham aniqrog'i bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar milliy-ma'naviy o'ziga xoslikni rivojlanishiga nisbatan ustuvor o'rinni egallab kelmoqda.

"Madaniyat" bilan "etnomadaniyat" tushunchalarining o'zaro farqli tomonlarini, o'ziga xosligini va "etnomadaniyat"ning millatdoshlarimiz ruhiyati, ongi, dunyoqarashida qaysi darajada o'rin olganligini va ularning bu madaniyat taraqqiyotiga munosabatlarini aniqlash maqsadida "Millatning etnomadaniyati quyidagilardan qaysi birlarini o'z ichiga oladi?" – degan savol berildi. Unga so'rovda qatnashgan respondentlardan bu diniy e'tiqodini (25%); axloqini (18%); urf-odat, an'ana, marosim, qadriyatlar, udumlar va turmush tarzi (35%)ni tashkil qildi. Ulardan 20% bu tushunchani eshitmaganligini bildirdilar. Keltirilgan ko'rsatkichlardagi yana bir muhim jihat shundaki, bu tushunchalar qishloq aholisi 60%, bu tushunchani eshitmaganligini bildirgan bo'lsa, qishloq yoshlari 40% ana shunday fikr bildirganlar.

Albatta, bu qo'yilgan savolga berilayotgan javobdan ham ko'rinib turibdiki, millatdoshlarimizda milliy-ma'naviy o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqida yetarli darajada ma'lumotga ega emas. Bu fikrimizcha, yana bir bor "Madaniyat" va "Etnomadaniyat" tushunchalariga munosabatingizni bildiring", - degan so'roviga bergan javoblaridan ham ko'rinib turibdi. Jumladan respondentlarning aksariyat ko'pchilik (60,4%) qismi ularni bir xil tushuncha deb hisoblaydi, atiga 26,8% ularning har-tushunchalar "etnomadaniyat" millatning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi tushuncha deb hisoblaydiganlar 23,4 % ni tashkil qiladi. So'rovdagi yana bir xarakterli tomoni shundaki, respondentlardan bir qismi (16,5%) "Madaniyat"ning "Etnomadaniyat"ga nisbatan keng qamrovli tushuncha ekanligini ham ko'rsatganlar. Ularni bir xil tushuncha sifatida qaraydiganlar shahar aholisiga (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Urganch, shahar aholisi) nisbatan qishloqda katta foizni (86,5%)ni tashkil qildi. Yana bir muhim ko'rsatgich shu bo'ldiki, yoshlarning aksariyat ko'pchilik qismi (universitet va kollej talabalari) (78,9%) bu tushunchalarning turli ma'noni anglatishini ko'rsatganlar.

Mavzuning muhim masalalaridan yana biri etnomadaniyatdagi evolyutsion jarayonga millatdoshlarmizning munosabatlarini aniqlashni kiritgan edik. Buning uchun ularga "etnomadaniyatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi deb hisoblaysiz?" - degan savolni havola etdik. Repondentlarning 85,8% etnomadaniyatning milliy zaminlarga tayanishi va oziqlanishi kuchayadi, degan javobni bergan bo'lsalar, 10,9% etnomadaniyatning boshqa millatlar ma'naviy ta'siridan himoyalanih imkoniyati yuzaga keladi, 3,3% esa o'zgarishlarni sezmayapman - degan javobni berganlar. Avvalo savollar ana shu variantning qo'yilishdan kutilgan maqsad haqida.

Ma'lumki, sobiq sho'rolar hukumronligi sharoitida o'zbek etnomadaniyati o'z zaminlariga tayangan holda emas, balki "rus" aniqrog'i g'arb urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim va udumlar ta'sirida "rivojlanib" keldi. Buning natijasida millatdoshlarimizning bir qismida ana shu etnomadaniyat ta'siriga "moyillik" ruhiyati ham shakllanadi. Mazkur "moyillik" umummillat darajasida ham o'ziga xos o'rin egallay boshlagan edi. Xuddi ana shu "moyillik"ning holatini aniqlash orqali o'zbek etnomadaniyatidagi evolyutsion jarayonning darajalari haqida ma'lum bir xulosalar ishlab chiqish mumkinligi nazarda tutildi. Endi javoblar tahliliga qaytamiz: yuqorida bu variantga bergan (10,9%) javobning yuqori bo'lib qolishiga sabab ikkita:

Birinchidan, shuni hisobga olish keraki, sobiq sho'rolar hukumronligi sharoitida etnomadaniyatimizga o'tkazilgan ta'sirning kuchi hamon saqlanib qolmoqda, undan etnomadaniyatimizning undan "ozod" bo'lishi uchun ko'p mehnat qilinishi lozim bo'ladi. Jumladan, milliy urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va

marosimlarni bosqichma-bosqich tiklashni amalga oshirishimiz, ayniqsa ularni yoshlar o'rtasida ommalashtirishga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, sobiq sho'rolar hukumronligi sharoitida uning shaklan "milliy" mazmuni "yagona" sotsialistik madaniyatidan "bahra" olgan avlodning ongi dunyoqarashlaridan uning "chiqib" ketishi ham murakkab kechmoqda. So'rovlar natijalaridan ko'rish mumkinki, bunday holat nisbatan keksa (mahallada o'tkazilgan so'rovlarga muvofiq 60 yoshdan yuqori va 45 yoshdan yuqori) va o'rta avlodning shaharlarda yashayotgan qismida nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Etnomadaniyatda sodir bo'lgan tiklanish jarayonining darajalarini aniqlash maqsadida "Etnomadaniyatning tiklanishi nimalarni o'z ichiga oladi", – degan savolga ijobiy ko'rsatgichlardan to'rtta variant respondentlarga havola etildi. Xususan, urf-odat, an'ana, qadriyatlarining qayta tiklanishi; qadriyatlarining, udumlar, marosimlarning tiklanishi, urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim va udumlarni qayta tiklanishi va jahon madaniyati rivojida milliy madaniyatimizning o'tkazadigan ta'sirining tiklanishning kabi variantlar berilgan edi. Respondentlarning deyarlik 80,4 foiz ularning to'rtalasiga ham bir xil javob berganlar. Shuning bilan bir vaqtda uchinchi variantni ya'ni, "urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim va udumlarni qayta tiklanishi"ni tanlaganlar soni yuqoridagilarga nisbatan ko'proq (85,6%) ko'rsatkichni tashkil qildi. Bunday bo'lishi ham tabiiy hisoblanadi. Chunki, qaramlik sharoitida milliy urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim va udumlarning toptalishi, ulardan baxramand bo'lishning imkoniyati bo'lmaganligi sababli ularni qayta tiklash va baxramand imkoniyati yuzaga kelishi boy berilgan vaqtning o'rnini to'ldirish, o'zlarining ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilish kuchayib boradi. Xuddi, ana shu bois ham millatdoshlarimizning etnomadaniyatning tiklanishining uchinchi variantini tanlashda faollik ko'rsatganlar. Yuqoridagi savolni yana ham aniq qilgan holda, uni milliy etnomadaniyatdagi holatini aniqlash maqsadida: "Bugun o'zbek etnomadaniyatiga nimalarning ta'siri kuchaymoqda?" – degan savol berilganda respondentlarning aksariyat ko'pchiligi 32,6% "G'arb mamlakatlari xalqlarining ma'naviyati", – degan variantni tanlaganlar. Shuning bilan birga "Jahonda shakllanayotgan "ommaviy" madaniyat" variantini tanlaganlar 20,6%, Sharq mamlakatlar xalqlarining madaniyatini tanlaganlar 16,6%ni tashkil qildi. Shuning bilan birga u yoki bu xalqlar madaniyatlarining ta'sirini "sezmayotganlar" ham ancha katta 30,2% ko'rsatkichni tashkil qildi.

Keltirilgan foizlarni solishtirish asosida respondentlarning javoblarining mohiyatiga yondashilganda, ulardan kelib chiqadigan xulosalar quyidagicha:

Birinchi**dan,** millatdoshlarimizning etnomadaniy salohiyati o'sib borayotganligini ko'rish mumkin. Bu ularning u yoki bu mamlakatlar xalqlari madaniyatlari ta'sirini "sezmayotganligi"da va o'z etnomadaniyatlariga ehtiyojlarning o'sib borayotganligida namoyon bo'lmoqda. Bunga mamlakatimizda milliy urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarni qayta tiklanishi borasida davlat tomonidan olib borilgan amaliy ishlarining natijasi sifatida qarash mumkin;

Ikkinchi**dan,** etnomadaniyatimizga boshqa xalqlar madaniyatlarining ta'sirini "sezmayotgan"larning yuqori ko'rsatgichni tashkil qilayotganligi hali millatdoshlarimiz ongi, qalbi va dunyoqarashlariga qayta tiklanayotgan urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarimizning milliy taraqqiyotning bugungi talabi darajasida yetib bormayotganligi bilan bog'liq. Bundan tegishli xulosa chiqargan holatda etnomadaniyatimizni o'z zaminlarimizga tayangan holatda rivojlantirish bu sohada mas'ul bo'lgan tashkilot, javobgar shaxslar va oddiy millatdoshlarimiz oldida turgan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Chunki, ta'sirni "sezmayotgan"larni turli yot g'oyalar girdobiga tushib qolish xavfi nihoyatda kuchli bo'ladi. Bu istiqbolda millat taraqqiyotiga ham tahdid soluvchi katta kuchga aylanishi xavfini ham yuzaga keltiradi.

Bu masalaga yana ham konkret javob olish uchun respondentlarga "o'zbek etnomadaniyatiga chetdan o'tkazilayotgan ta'sir nimalarda namoyon bo'lmoqda?"- degan savol havola etilganda, ularning aksariyat ko'pchiligi taklif qilinayotgan to'rtta variantdan ikkinchisiga, ya'ni "millatimizga xos bo'lmagan kiyinishlarda" (30,3%) - degan variantni tanlaganlar. Ayni paytda "millatimizga xos bo'lmagan axloqiy ko'rinishlarda" (18,4%); milliy urf-odatlar, an'ana, qadriyatlar, udumlar va marosimlardagi o'ziga xoslik o'rnini xorij xalqlariniki ko'proq egallayotganligida (16,6%); va nihoyat oxirgi o'rinda "O'zbek oilaviy qadriyatlariga xos bo'lmagan yangi munosabatlarda" (10,3%) - degan variantni tanlaganlarni tashkil qildi.

Agar respondentlar tomonidan berilgan javoblarning ko'rsatgichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatgichni tashkil qilgan "Millatimizga xos bo'lmagan kiyinishlardan", – degan variantning tanlanishining asosiy sababi, fikrimizcha, ikkita: a) kiyinish ichki ruhiyat, ma'naviyat va dunyoqarashga qaraganda real namoyon bo'ladigan, ko'rish mumkin bo'lgan moddiylikni tashkil qiladi. Uni insonlarning intellektual salohiyatining darajalaridan qat'i nazar ko'rish mumkin. Haqiqatan ham xorijiy, dastavval Yevropa mamlakatlari xalqlarining kiyinish madaniyati, kiyimlari ayniqsa yoshlarimiz orasida ommaviylashib ketayotganligi bugun etnomadaniyatimizdagi "evolyutsion" o'zgarishlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda; b) millatdoshlarimiz ongi, axloq va xatti-harakatlarida chetdan o'tkazilayotgan ta'sirlarning ikkinchi ko'rsatgichni tashkil qilishida hali

umummilliy etnomadaniyatning ham yetarli darajada taraqqiy qilmaganligida ko'rish mumkin. Eng xarakterli tomoni shundaki, ana shu variantlarni tanlashda qishloq va shahar aholisi deyarlik bir xil shaharliklar (30,3%), qishloq aholisi (29,9%) ko'rsatgichni tanlaganliklarida bo'ldi. Ammo, ikkinchi variantni tanlaganlar, ya'ni "axloqiy, oilaviy qadriyatlarga xos bo'lmagan yangi munosabatlarda" variantini tanlaganlar o'rtasida, qishloqda yashovchilar (10,6%) shaharda yashaydigan aholi (18,4%) ko'rsatgichni tashkil qildi. Bu farq albatta yuqorida ta'kidlagandek, qishloq aholisi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida "zamonaviylashuv" jarayoni nisbatan sekin borayotganligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari,

"O'zbek etnomadaniyatida turli xalqlar madaniyatlari o'rin egalayotganligini qanday baholaysiz?" – degan savol respondentlarga xavola etilganda ulardan (30,4%) ijobiy; (24,3%) salbiy; (20,4%) befarq; (25,3%) ta'sirini sezayotganim yo'q, – degan javoblarni berganlar. Bunday ko'rsatgichlarni baholash ancha murakkab hisoblanadi. Chunki, har qanday etnomadaniyat u qanday taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishidan qat'i nazar tashqi ta'sirlarsiz "toza" holatda rivojlana olmaydi, balki, u kimnikidan nimanidir olish hisobiga ham boyib boradi. Bu etnomadaniyatlar rivojlanishining umumiy qonuniyati hisoblanadi. Ammo, bu boyish o'zga madaniyatdan nimani qabul qilishga moyilligi bilan bog'liq bo'ladi. Agar, o'z zaminiga tayanishga moyillik kuchli bo'lsa, bunday moyillik milliy merosi, tarixiy xotirasi kuchli bo'lgan millatlarda yuqori bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, etnomadaniyatga "tashqaridan" o'tkaziladigan ta'sirlari kuchli bo'lmaydi va ular o'zlariga yaqin bo'lgan tomonlarini "qabul qilishi" va ayni paytda o'zining ta'sirini ham o'tkazishi mumkin.

Yuqoridagi javoblardan ko'rinib turibdiki, millatdoshlarimiz etnomadaniyatiga boshqa mamlakat xalqlarining madaniyatlardagi salbiy jihatlarning kirib kelayotganliklariga xavotir bilan qaramoqdalar. Ana shu xavotirlarning darajalarini aniqlash maqsadida "O'zbeklar etnomadaniyatiga tashqi ta'sirlaridan himoya qilish uchun nimalar qilish lozim deb hisoblaysiz?" – degan savolni respondentlarga xavola etilganda ularning aksariyat ko'pchiligi (48,6%) radio, televideniya va ommaviy axborot vositalarida xorij xalqlari asarlari, kinofil'm va turmush tarzilarini tashviqot qilishni cheklash lozimligini bildirganlar. Buning o'rniga "milliy madaniy merosni o'rganish, uni ommaviylashtirishni kuchaytirish" va "yoshlar o'rtasida milliy tarbiyani kuchaytirish" zarurligi variantini (45,9%) tanlaganlar. Bu variantlarga berilgan javoblar deyarlik bir xil, ular o'rtasidagi farq 2-3% ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, millatdoshlarimizda etnomadaniyatimizga tashqaridan o'tkazilayotgan ta'sirlardan xavotir kuchli.

Ammo, ular tomonidan tanlangan variantlardagi javoblarni real hayotda amalga oshirish nihoyatda murakkab hisoblanadi. Chunki, radio, televideniya va ommaviy axborot vositalaridagi xorijiy mamlakatlari xalqlar madaniyati va san'atini tashviqot qilishni cheklash mumkin. Lekin, bugun komp'yuter va internetni cheklashning iloji yo'qligi hammaga ma'lum. Bu vositalar hozirgi kunda o'zbek xonadonlarining ko'pchiligidan o'rin oldi va tarqalishi shiddat bilan bormoqda. Millatimiz mentalitetiga zid bo'lgan axloq, kiyinish va turli munosabatlarning aksariyat ko'pchiligi ana shu vositalar orqali o'zbek aholisi, ayniqsa, yoshlari o'rtasida ommaviylashib bormoqda. Demak, uni cheklashning imkoniyati yo'q ekan, unda nima qilish kerak?

Buning javobini aksariyat ko'pchilik (48,6%) respondentlar to'g'ri tanlaganlar. Ya'ni milliy merosni o'rganish va uni ommalashtirish; "yoshlar o'rtasida milliy tarbiyani kuchaytirish" lozimligini ko'rsatganlar. Bu amalga oshirilmoqda. Ammo bu millatdoshlarimiz vakillari, ayniqsa yoshlarimizning o'sib kelayotgan ehtiyojlarini qondirmayapdi, - degan fikrni bildirishga asos bor. Jumladan, urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlardan iborat bo'lgan marosimlarimizni ommalashtirish darajasi, sifati xorijiy mamlakatlarning madaniyatlarini tashviqot qilish darajasi va sifatidan past bo'lib qolmoqda. Ularni ommalashtirishda salohiyatimiz va tajribamiz yetmayotir. Ayniqsa, ularni komp'yuter va internetlarga joylashtirish orqali o'zimizning aholimiz va xorijiy mamlakatlar xalqlariga mo'ljallab tashviqot qilish va ommalashtirishning eng zamonaviy uslublarini o'rganishimiz lozimligini ko'rsatmoqda.

Buni respondentlarga "etnomadaniyatni boyitishda xorij mamlakatlari xalqlari madaniyatlaridan nimalarni qabul qilish mumkin?" – degan savol berilganda, ularning javoblaridan ham ko'rish mumkin. Bu savolga quyidagi to'rtta variant javoblar kiritilgan edi: 1) hech narsani; 2) hamma urf-odat, an'ana va qadriyatlarini; 3) ulardagi milliylikka ustuvorlik berishini; 4) o'z milliy madaniyatlarini ommalashtirishdagi tajribalarini. Respondent-larning birinchi variantini tanlaganlari 12,5% yaqini, ikkinchi variantni tanlaganlari 15,04%, uchinchi variantni tanlaganlari 23,9%; to'rtinchi variantni tanlaganlari 25,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, qolgan 25% yaqin respondentlar betaraf qolganlar. Bu ko'rsatkichlar ikkitasi, ya'ni birinchisi va to'rtinchisi o'rtasidagi farq chuqur analizga muxtoj. Chunki, birinchi ko'rsatkichning 12,5% aksariyat ko'pchiligini 78,4% shahar aholisi tashkil qildi, xuddi shuningdek, to'rtinchi variantni tanlaganlarning aksariyat ko'pchiligini 79,6% ham ular tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlar xalqlarining urf-odat, an'ana va qadriyatlari shahar aholisi o'rtasida keng targ'ib qilinishi uchun turli vositalarning imkoniyatlari kengayib

bormoqda. Shuning uchun ularning ommaviylashuvi ham qishloq aholisiga nisbatan katta ekanligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, ikkinchi variantni tanlaganlarning aksariat ko'pchiligini (55,8%) yoshlar tashkil qilganligi ham, xorijiy mamlakatlarning urf-odat, an'ana va qadriyatlarining ular o'rtasidagi ommalashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bu albatta salbiy jarayon hisoblanadi. Bu salbiy jarayonning yuzaga kelishida ikkita omil rol o'ynayotganligini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu bir tomondan, xorijiy mamlakatlarning o'z "mahsulot"larini tashviqot va targ'ibot qilishdagi uddaburonligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning yoshlarning katta hayotiy tajribasi bo'lmaganligi va har qanday yangiliklarga qiziquvchanlik katta bo'lgan ruhiy holati kelib chiqqan holda nimani qaysi vaqtda va qaysi uslubda ular ongiga singdirish zarurligini bilishdagi to'plagan tajribalarining kattaligi bilan bog'liqdir.

Birgina misol AQShda bolalar uchun ishlab chiqilayotgan "Kola" va konfet batonchikini reklama qilish uchun yiliga 11 milliard dollar sarflanmoqda. Ularni ishlab chiqadigan kompaniyaga 90 dan 110 milliard dollar sof foyda kelib chiqmoqda [2]. Bu reklama bolalarni o'ziga rom qilib qo'yadiki, ular ota-onalarini uni sotib olib berishga beixtiyor majbur etadi. Boz ustiga uni reklama qilish barcha yo'nalishlarda ommaviy tarzda amalga oshiriladi. Oddiy o'yinlardan boshlab, sport, dam olish, hatto ulg'ayishga "yordam" beradigan kuch sifatida ko'rsatiladi. Bunday harakatlar bolalarni beixtiyor jalb etadi va uni sotib olishga majbur bo'ladilar.

Bundan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar o'z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirishda mablag'ning sarflanishidan cho'chishmaydi. Ular biladigan sarflangan mablag' hech qachon bekorga ketmaydi, balki u bir necha barobar bo'lib qaytib keladi. Islom Karimov ta'kidlaganidek "...dunyoda bir qarashda beozor, siyosatdan holi bo'lib tuyuladigan shunday mafkuraviy ta'sir vositalari borki, ularga ko'pda yetarlicha e'tibor beravermaymiz" [3]. Xuddi ana shu vositalar orqali Yevropaning bir qator taraqqiy qilgan mamlakatlari o'zlarining urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarini tashviqot qilish va aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ommalashtirishga harakat qilmoqdalar. Bu maqsadni amalga oshirish yo'lida juda ko'plab mablag'larni sarflamoqdalar.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarning o'z urf-odat, an'ana va qadriyatlarining yoshlarimizning ongi va dunyoqarashidan chuqur o'rin olmasligiga imkoniyat qoldirmaslik uchun zarur bo'lgan mablag'ni ajratish va undan samarali foydalanishning eng zamonaviy uslublarini ishlab chiqishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bugungi kunda millatimiz mentalitetida salbiy xususiyatlar namoyon bo'layotganligini ham kuzatish mumkin. Bu masalaga aniqlik kiritish uchun "Bugunga kelib o'zbek milliy mentalitetida

qanday salbiy hususiyatlar namoyon bo'ldi", – degan savolga respondentlarga quyidagi javobning beshta varianti taklif etildi.

- 1) ota-onaga mehr-muhabbat susaydi;
- 2) qarindosh-urug'chilik munosabatlari susaydi;
- 3) mol-dunyoga berilish kuchaydi;
- 4) manmanlik, xudbinlik kuchaydi;
- 5) hech qanday salbiy xususiyatlar sodir bo'lmadi.

Keltirilgan salbiy xususiyatlar variantlarning to'rtalasini tanlaganlar o'rtasida deyarlik farq juda kam. So'rovda qatnashganlarning aksariyat ko'pchiligi 88,6% barcha salbiy xususiyatlar shakllanganligini ta'kidlaganlar. Beshinchi varianti tanlaganlar (0,4%) ozchilikni tashkil qildi. Qolgan 13% millatdoshlarimiz bu jarayonni "sezmayotganlarni" tashkil etdi. Etnomadaniyatimiz o'z ifodasini topayotgan ana shu salbiy jarayonlarni bartaraf etish va uni rivojlantirishga ijobiy ta'sir o'tkazadigan omillarni aniqlash maqsadida "etnomadaniyatni rivojlantirishda nimalar asos bo'lishi mumkin", – degan savolni respondentlarga havola etilgandi. Ularning (so'rovda qatnashganlar 100% hisobidan) milliy-madaniy meros 32%, islom dini 46,4%; milliy ong 12,5% tarixiy xotira 8,5%, tarixiy ong 3,6% respondentlar javob bergandilar. Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, etnomadaniyatning muhim qismlarini tashkil qilgan yuqoridagi elementlariga bo'lgan intilish millatdoshlarimiz orasida kuchli. Bu mustaqilligimiz sharoitida ulardan foydalanishga bo'lgan imkoniyatning yuzaga kelishi va ularga ehtiyojning oshib borayotganligi bilan bog'liqdir.

Millatdoshlarimizning hozirgi davrda "zamonaviylashuv" jarayoniga munosabatlarini aniqlash maqsadida ularga "milliy urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarning "zamonaviylashuvi" – deganda nimani tushunasiz?" – degan savol berildi va 5 variant javob taklif etildi. Ular ichida milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni rivojlantirishni bugungi taraqqiyot darajasiga ko'tarish zarur degan variantni tanlaganlar ko'pchilik (48,4%)ni tashkil qilgan bo'lsa, ma'naviy merosimiz asosida rivojlanishini (30,2%) ikkinchi o'rinni egalladi; bilmayman deganlar (15%), batamom yangi urf-odat, an'analarni shakllantirish tarafdorlari (12,8%), jahon xalqlarining hozirgi zamon ma'naviy-qadriyatlari hisobiga boyishini tanlaganlar (2,5%)ni tashkil qildi. Respondentlar javoblaridan ko'rinib turibdiki, ular mentalitetimizga xos bo'lgan xususiyatlarni bugungi zamon darajasida rivojlantirish zarurligini e'tirof etmoqdalar. Ayni paytda "zamonaviylashtirish"ning zaminida milliy o'ziga xoslik turishligiga katta e'tibor bilan qaraganlar. Shuning bilan birga millatdoshlarimizning yoshlari orasida yangi urf-odatlar, an'analar, qadriyat, marosim va udumlarni rivojlantirishga intiluvchilar borligini ham ko'rish mumkin.

Etnomadaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan yana bir xususiyatni aniqlash maqsadida respondentlarga “oilaviy urf-odat va qadriyatlardan qaysi biri muhim deb hisoblaysiz?” – degan savol berilganda ularning aksariyat ko'pchiligi (85,6%) ota, ona, buvi, boboga mas'uliyat, aka, opa, uka, singillarning o'zaro qarindoshligini hurmatlash, ularga moddiy yordam ko'rsatish vafot etsa xotirlash, amaki, tog'aga e'tiborli bo'lish kabi an'ana va qadriyatlarni muhimligini bildirganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, oilaviy va qarindosh urug'chilik rishtalarining mustahkamligini saqlanib qolmoqda. Bu millatimizning istiqbolida ham o'zining urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarini saqlab qolish orqali o'zligini anglashga intilishi sodir bo'layotgan evolyutsion jarayonda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar hisoblandi.

Ayni paytda, bunday intilishning oshib borishiga asosiy sabablardan biri, yuqorida ko'rsatilganidek, bozor munosabatlari sharoitida yuzaga kelayotgan moddiy qiyinchilik oqibatida oila, ota, ona, qarindosh-urug'chilik munosabatlari susayib borishini millatdoshlarimizning xohlamayotganligi – deb qarash mumkin. Uni millatimiz vakillarida bu jarayonga javobi sifatida qabul qilish mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan so'rovlar natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, o'zbek etnomadaniy hayotida milliy-ma'naviy tiklanish jarayonlari sodir bo'lmoqda. Sobiq sho'rolar zo'ravonligi sharoitida toptalgan, urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim va udumlar tiklanmoqda. Bu jarayondagi asosiy xususiyat shundaki, etnomadaniyatning tiklanishi nafaqat avlod-ajdodlardan meroslarni o'zlashtirish, shuningdek, ularni bugungi jahon xalqlari taraqqiyotining darajalariga ko'tarish va ommalashtirish tarzida namoyon bo'lmoqda;

Ikkinchidan, etnomadaniyatimizning “zamonaviylashuviga” jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayoni ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Uning ta'sirida o'zbek mentalitetiga uning etnomadaniyatdagi xususiyatlariga zid bo'lgan xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan urf-odat, an'ana va qadriyatlar kirib kelmoqda. Ular kiyinishdan tortib, oilaviy, yashash turmush tarzini, o'zaro munosabatlar va boshqa qadriyatlar orqali namoyon bo'lmoqda. Ularning etnomadaniyatimizda o'rin egallashi milliy taraqqiyotimizga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Zero, “zamonaviylik” vaqt nuqtai nazardan kecha va ertangi kun o'rtasidagi “bugun”dan iborat bo'lgan tushuncha ekan etnomadaniyat taraqqiyoti nuqtai nazardan qaraganda avlod-ajdodlardan qoldirilgan merosdan samarali foydalangan holda millatimizning bugungi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan va ertangi kunda ham millat

taraqqiyotiga xizmat qila oladigan bugunning etnomadaniyatini vujudga keltirish nazarda tutilmog'i lozim.

Uchinchidan, ilgari surilayotgan g'oyalimizni asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida "o'zbek milliy mentalitetining etnomadaniy xususiyatlari" mavzusida o'tkazilgan so'rovnomalardan shu ko'rinib turibdi ya'ni: a) millatdoshlarimiz ayniqsa, qishloqda yashayotganlarning aksariyat ko'pchiligida milliy xususiyatlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi bir qator qadriyatlar o'rtasida "ommalashtirish" jarayonlari bugungi ehtiyojlar darajasidan orqada qolmoqda; b) milliatimizning aksariyat ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi o'zbek yoshlarining kiyinish madaniyatidan tortib, milliy urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarga amal qilishda chetdan kelayotgan ta'sirlarga berilish ustuvorligi ayon bo'lmoqda; v) etnomadaniyatdagi evolyutsion jarayondagi eng muhim o'zgarishlardan biri shundaki, millatdoshlarimiz bugungi kunda mustaqilligimizni milliy taraqqiyotimizning asosiy sharti sifatida qaramoqdalar; g) etnomadaniyatimizda sodir bo'layotgan salbiy jihat shundaki, uning "zamonaviylashuvida" (ya'ni xorijiy mamlakatlar madaniyatlari hisobiga rivojlanishida) qishloq aholisiga nisbatan shahar aholimizda "moyillik" ustun bo'lib qolmoqda. Bundan kelib chiqadigan xulosa, ular o'rtasida milliy urf,odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarni zamon ehtiyojlari darajasida ommalashtirishda mahallalar rolini izchillik bilan oshirib zarur bo'ladi; d) etnomadaniyatdagi evolyutsion jarayonda sodir bo'layotgan salbiy jihatlardan millatdoshlarimizning aksariyat ko'pchiligi tomonidan anglanayotganligi va ularga qarshi tura oladigan omillar sifatida milliy madaniy meros, tarixiy xotira, milliy ong, avlod-ajdodlar hayotiy tajribalarining ko'rsatilganligi istiqbolda millatimiz mustaqil taraqqiyoti uchun ham katta ma'naviy-ruhiy salohiyatimiz borligini bildiradi.

O'tkazilgan so'rovnomalardan kelib chiqadigan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, etnomadaniy hayotimizda sodir bo'layotgan "zamonaviylashuv" jarayoni yuzaga kelgan imkoniyatdan foydalanish unda milliy-madaniy zaminlarga tayanish va globallashtirishning avj olishi ta'sirida xorijiy mamlakatlar xalqlari madaniyatlarini o'zlashtirishga bo'lgan moyillikning o'sishi o'rtasidagi kurashning mavjudligi kabi murakkab holatda yuzaga kelmoqda. Ammo, bu jarayonda milliy zaminlarga tayanishga bo'lgan intilishning kuchayib borayotganligi istiqbolda rivojlanishimiz manba bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nishonova O. O'zbek ayollari etnomadaniyati: tarixiylik va zamonaviylik // Falsafa va huquq. – Toshkent: 2005. - №2. – 76 b.

2. Trud gazetasi (gazetaning ilova qismida). 2005 yil 27 dekabr`.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 493 b.
4. Otamuradov S. Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik. -Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2013.
5. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Navro'z, 2015.
6. Umarova F., Norqulov S. Modernizatsiya va o'zbek etnotafakkuridagi yangilanishlar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021.
7. Otamuratov S.S. "Uyushmagan" va "faol" yoshlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni, 2019, N.6, www.tadizhigot.uz.
8. Otamuratov S. Specific Characteristics of Youth Social Group and its Place in Community Life. Periodica. Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. Volume 11, October, 2022.

**"Innovations in Science and
Technologies"**